

O'LKANI O'RGANISH – DOLZARB MASALA (“Tarixiy o'lakashunoslik va turizm” fani misolida)

**Xujamov Mamarajab Eshnyazovich,
USAT katta o'qituvchisi, tel.94-6127511**

O'zbekiston mustaqilligining xalqimizga bergan ulug‘ ne'matlaridan biri – ko'hna va betakror tariximizni chuqur o'rganishga, o'zlikni anglashga, azaldan shu ona zaminda istiqomat qilib kelgan ajdodlarimiz orzu etganiday hur va ozod yashashga, yurtimizning buyuk istiqboli yo'lida zavq bilan hayot kechirish va mehnat qilish sharoitini yuzaga keltirdi. Endilikda bu o'lka nafaqat o'zbek xalqiga, unda yashayotgan turli millat vakillari uchun ham muqaddas oshyon, tabarruk diyor hisoblanadi.

Qadimshunos olimlarimiz e'tirof etganlaridek, o'tmishi insoniyat ilk ajdodlarining vakillari yashagan uzoq tarixga tengdosh bo'lgan bu qadimiy va jozibali Vatanni, unda yashab, etnomadaniy rivojlanish, yuksalib borish barobarida dunyo tamadduni(sivilizatsiyasi)ning boyishiga samarali ta'sir ko'rsatgan buyuk allomalar, qahramonlarni voyaga yetkazgan xalqimizning o'tmishini ro'yrost o'rganishga, hozirgi hayoti bilan yaqindan tanishishga keng imkoniyatlar paydo bo'ldi. Zero, Vatanimizning boy tarixini, xalqimizning buniyodkorlik salohiyati va kuch-qudratiga daxldor asosli dalillar bilan tanishib borish orqaligina kishilarda ularni qadrlashga ishtiyoq, ardoqlashga doir maqsad kamol topadi. Shu jihatdan olganda ”Vatan – ostonadan, vatanparvarlik - o'z o'lkasini o'rganishdan boshlanadi” degan naql zamirida asosli haqiqat va hikmat bor.

O'zbekiston Mustaqilligi yillarda Oliy ta'limda tub o'zgarishlar yuzaga keldi. Ayniqsa keyingi 5-6 yil ichida bu borada amalga oshirilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq. Bunga 2020 yil 23 sentyabrda yangi tahrirda O'RQ-637-sonli “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishini qayd etib ko'rsatish ham o'rinnlidir.¹

O'zbekiston mustaqilligi yillarda Oliy ta'limda “Tarixiy o'lakashunoslik va turizm” fanini o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Tuzilgan fan dasturiga binoan unda o'lka va xalq o'tmishini, uni eng qadimgi davrlardan to hozirga qadar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rivojlanib borishining eng muhim jihatlarini, ya'ni: o'lkada ilk odamlarning manzilgohlari, turmush tarzi haqida, urug‘, kabilia, elat va millatning etnomadaniy rivojlanib borishi, qishloq, shahar, davlatlarning shakllanishi va taraqqiyoti, tarixiy yodgorliklar, muqaddas qadamjolar, ularning nomlari bilan bog'liq o'lka toponimikasini, turizmning rivojlanish tarixi va bugungi ahvolini, respublikamiz mustaqillikka erishgach bu sohadagi ulkan buniyodkorlik ishlarini tadqiq va targ'ib etishdan iborat.²

Tarixiy o'lakashunoslik va turizm fanining maqsadi: O'lka tarixini chuqurroq o'rganish asosida talaba-yoshlarda xalqimiz tarixiy, ilmiy va madaniy merosidan faxrlanish tuyg'usini uyg'otish, ularda ulug‘ qadriyatlarga sodiq qolish ruhini

¹ (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-soni).

² Xo'jamov M., Lafasov M., Mulladjanova R. Tarixiy o'lakashunoslik va turizm. –T.: “Mumtoz so'z”, 2014

singdirish va shu orqali Vatanga va xalqqa muhabbatni shakllantirishdan iborat.

Tarxiy o‘lkashunoslik va turizm fanining vazifasi: Vatanimiz tarixini, uning eng qadimgi davrlardan to hozirgacha bo‘lgan davrini joylardagi ma’naviy va moddiy yodgorliklarni – arxeologiya, etnografiya, toponimika, arxivshunoslik, muzey eksponatlari va turizm nuqtai nazari orqali tadqiq va tahlil etishdan iborat.

Shuningdek, fan orqali o‘lkada turizm (sayyohlik)ning shakllanishi, rivoji va istiqbollariga doir bo‘lgan masalalarning yoritilishi ayniqsa muhimdir. Zero turizm hozirda nafaqat mamlakatning iqtisodiyotiga, ayni vaqtida ijtimoiy, madaniy, siyosiy hayotiga daxldor bo‘lgan istiqbolli soha sifatida rivojlanishi keng yo‘lga qo‘yilmoqda.

Dunyo miqyosida ham turizmga katta e’tibor qaratilmoqda. Chunki “Jahon eksportida turizm neft va neft mahsulotlari hamda avtomobillar eksportidan so‘ng uchinchi o‘rinni egallaydi³. Turizmni yanada yuqori o‘rnlarga ko‘tarilish kutilmoqda.

O‘zbekiston ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlarga egaki, buni nafaqat noyob tabiatimizning borligi bilan, shuningdek “Yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros ob’ektilari mavjud”⁴ ekanligi bilan ham izohlasa bo‘ladi. O‘zbekiston o‘zining turistik imkoniyatlari bo‘yicha Markaziy Osiyoda 1-o‘rinda, dunyo bo‘yicha esa 10-15 o‘rinda turadi.⁵

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 2 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori mamlakatda turizm industriyasini, jumladan ekoturizm faoliyatini dasturiy asosda yo‘lga qo‘yishda mustahkam negiz bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda Prezidentimizning 2017 yil 12 iyuldagagi “Turizm sohasini rivojlantirishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas’uliyatini yanada oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarori shu sohani jadal rivojlanib borishida katta ahamiyatga ega.

Butunjahon turistik tashkiloti (BTT) ma’lumotlariga ko‘ra jahon yalpi milliy maxsulotining 11 foizi, investitsiyalarni 10 foizi, jahon iste’mol xarajatlarining 11 foizi, soliq tushumlarining 5 foizi turizm sohasi hissasiga to‘g‘ri keladi⁶. Shunday ekan, turizmni, ayniqsa xalqaro turizmni O‘zbekistonda tobora istiqbolli rivojlantirishni davrning o‘zi taqozo etadi.

Shu tariqa Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm fani orqali Vatan va xalqimizning uzoq-yaqin tarixini, shuningdek, mustaqillik yillarida hayotning barcha sohalarida: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniyatda, ayniqsa turizm sohasidagi yirik ijobjiy o‘zgarishlarni yoritish va o‘qitilishini keng yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

³ Balabanov I.T., Balabanov A.I. Ekonomika turizma. Moskva: Finansi i statistika, 2000. S. 3

⁴ “Xalq so‘zi”, 25 yanvar, 2020 y. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan.

⁵ M.Xo‘jamov, M.Lafasov, R.Mulladjanova. Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm. T., “Mumtoz so‘z”, 2014 y. 87- b.

⁶ Puzakova Ye.P. Mejdunarodniy turisticheskiy biznes. Moskva: PRIOR, 2001. S. 3

Oliy ta’limda “Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm” fanini o‘qitilishi va uni samarali tarzda tashkil etishga doir quyidagi fikr-mulohazalarni bildiramiz:

1. “Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm” fani yosh avlodda o‘lka va xalq haqidagi yaqqol tushuncha va tasavvurlarni hamda yuqori ko‘tarinkilik hissini hosil qilishi xususiyatlariga ko‘ra fanlar ichidagi o‘z o‘rniga ega bo‘lishini nazarda tutishning zarurligi.

2. “Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm” fanini Umumiyl o‘rta ta’limda hamda Oliy ta’limda o‘qitilishini yanada kengroq yo‘lga qo‘yilishi.

3. “Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm” fani o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarida ko‘rgazmalilik, namoyish etish, taqdimot kabi usul va vositalardan ko‘proq foydalanish.

4. “Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm” fani bo‘yicha amaliyot (o‘lka bo‘ylab, uning tarixiy-madaniy yodgorliklari va noyob tabiatini sayr-sayohatlar orqali o‘rganish)ni amalga oshirishni keng yo‘lga qo‘yish.

5. Turizm – mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotida juda katta ahamiyat kasb etib borayotganligini alohida e’tiborga olish maqsadga muvofiq bo‘lur edi.

Adabiyotlar:

- 1.Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son).
- 2.Xo‘jamov M., Lafasov M., Mulladjanova R. Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm. –T.: “Mumtoz so‘z”, 2014.
3. Balabanov I.T., Balabanov A.I. Ekonomika turizma. Moskva: Finansы i statistika, 2000.
4. “Xalq so‘zi”, 25 yanvar, 2020 y. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan.
5. Xo‘jamov M., Lafasov M., Mulladjanova R. Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm. –T.: “Mumtoz so‘z”, 2014.
6. Puzakova Ye.P. Mejdunarodniy turisticheskiy biznes. Moskva: PRIOR, 2001.